



GLOBALLASHUVNING JAMIYAT TARMOQLARIDA NAMOYON BO'LISHI VA IJTIMOIIY SOHALARGA BUGUNGI KUNDAGI TA'SIR DOIRASI

Nusratilloeva Ruxshona Ravshanovna

Mirzo Ulug`bek nomidagi

O`zbekiston Milliy universiteti

IV bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuvning har bir sohasiga ya`ni: iqtisodiy, ijtimoiy, madaniyat, ta`lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga nisbatan ta`sir doirasi o`rganiladi. Maqolada globallashuvning ham salbiy, ham ijobiy jihatlarini ilmiy-nazariy asosda ko`rib chiqamiz. Ijtimoiy sohalarni rivojlantirish va ularni zamon talablariga moslashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Abstract: This article examines the impact of globalization on each sphere: economic, social, cultural, educational, information and communication technologies. The article examines both the negative and positive aspects of globalization on a scientific and theoretical basis. The issues of developing social spheres and adapting them to the requirements of the times are of great importance.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние глобализации на каждую сферу: экономическую, социальную, культурную, образовательную, информационно-коммуникационные технологии. В статье на научной и теоретической основе анализируются как негативные, так и позитивные аспекты глобализации. Вопросы развития социальных сфер и их адаптации к требованиям времени приобретают большое значение.

Kalit so`zlar: Globallashuv, integratsiya, axborot makoni, zamonaviy taraqqiyot, Iqtisodiy baynalminalallashuv, migratsiya, xavfsizlik, mafkuraviy immunitet, milliy tarbiya, ekstremizm, ommaviy madaniyat.

Keywords: Globalization, integration, information space, modern development, economic globalization, migration, security, ideological immunity, national education, extremism, mass culture.

Ключевые слова: глобализация, интеграция, информационное пространство, современное развитие, экономическая глобализация, миграция, безопасность, идеологический иммунитет, национальное образование, экстремизм, массовая культура.

“Globallashuv tashqi jihatdan bir-biridan ajratilmagan, milliy davlatlar, dinlar, mintaqalar va qit’alar borligini tan olmaydigan faoliyat va mavjudlikdir”





Ulrix Bek³

XXI asrda globallashuv jamiyat taraqqiyotining muhim va ajralmas qismiga aylandi. Bugungi kunda jamiyatning har bir sohasida bevosita globallashuv jarayoni bilan yuzlashasiz. Globallashuv bu- “Global” fransuzcha “global” degan soʻzdan kelib chiqqan boʻlib, “umumga oid”, “umumga taalluqli”, “umum bilan bogʻliq” maʼnolarini anglatadi. Etimologik nuqtayi nazardan “global” soʻzi lotincha “globus” yaʼni “shar” soʻzidan kelib chiqqan.⁴ Insoniyat hayotini, aloqalarini, integratsiya jarayonlarini global miqyosda intensivlashtirish, xalqlar va davlatlar ijtimoiy borligʻini umuminsoniy tamoyillar va umuminsoniy taraqqiyot talablariga muvofiqlashtirish tomon yetaklayotgan jarayondir.

Axborot- texnologiyalarining keskin rivojlanishi, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi natijasida davlatlar va jamiyatlar oʻrtasidagi bogʻliqlik oʻsib bormoqda. Globallashuv jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatgan boʻlsa, milliy qadriyatlar, ijtimoiy barqarorlik va maʼnaviy muhitga boʻlgan tahdidlarni keltirib chiqaryapti. Globallashuv mamlakatlar va xalqlar oʻrtasidagi oʻzaro aloqalarning kuchayishi, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va maʼdaniy muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Jamiyatning integratsiyalashuviga 2 tomonlama taʼsir etadi:

- Taraqqiyot, innovatsiya va hamkorlik imkoniyatlarini yaxshilaydi;
- Jamiyatda ijtimoiy tengsizlik, ommaviy madaniyat va maʼnaviy inqiroz kabi muammolarni yuzaga keltiradi.

XX asrning ikkinchi yarmida yarmida, 1960-1970-yillarda globallashuv atamasi dastlab iqtisodiy sohaga kirib keldi va XXI asrda ham globallashuvning eng yaqqol koʻrinishlaridan biri iqtisodiy sohada namoyon boʻlyapti. Iqtisodiy baynalmillashuv - ishlab chiqarishning xalqaro kooperatsiyasi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, tashqi savdo va xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanishi natijasida milliy iqtisodiyotlarning oʻzaro aloqasi va oʻzaro bogʻliqligining kuchayishi.⁵ Bu jarayon tur xil baholanadi. Rivojlangan va rivojlangan davlatlar uchun turli xil xarakter kasb etadi. Xalqaro savdo hajmining ortishi, transmilliy kompaniyalarning rivojlanishi, jahon bozorining integratsiyalashuvi milliy iqtisodiyotning oʻsishini yutuq deb atashimiz mumkin ammo global bozorlarda raqobatning kuchayishi, xoʻjalik faoliyatining erkinlashuvi mamlakatlar uchun xavf tugʻdira oladi. . Bu davlatlar oʻrtasida raqobatni kuchaytiradi va ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulotga boʻlgan talabning oʻsib borishiga xizmat qiladi. Rivojlangan davlatlar, nafaqat rivojlanayotgan davlatlar ham ekologik, xavfsizlik, migratsiya masalalarini birgalikda hal etishga harakat qilmoqdalar. Iqtisodiy baynalmillashuvda rivojlangan davlatlarning foydalari sezilarli darajada koʻrinib

³ Ульрих Бек. Что такое глобализация? - Москва: Прогресс-Традиция, 2001.-С.40.

⁴ Globallashuv asoslari: darslik. \ Xajiyeva M. S. - Toshkent 2020. - 17 b

⁵ Jahon iqtisodiyotining globallashuvi: oʻquv qoʻllanma. | A.A Isadjanov, N.S Ismailova. - Toshkent << Iqtisodiyot>>, 2019. – 8 b.



tursa, baʼzi hollarda rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiy globallashtirishda xomashyova resurslarini yetkazib beradilar va gegemon davlatlarning taʼsir doirasiga aylanadilar.

Globallashtirish jamiyatning turli sohalariga taʼsir oʻtkazayotgan bir vaqtda, siyosiy tarmoq ham bundan chetda qolmadi. Siyosiy globallashtirish – mamlakatlar oʻrtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy integratsiya va oʻzaro bogʻliqlikning kuchayishi, xalqaro tashkilotlar, qonunlarning global miqyosda kengayishi boʻlib, bu jarayon davlat suverenitetiga taʼsir koʻrsatib, jahon miqyosida umumiy muammolarni hal qilishga qaratiladi va xalqaro aloqalarni chuqurlashtiradi. Demokratik integratsiyalashuv fuqarolar erishishga harakat qilib kelgan ideal va erkin yashash makonidir. Jahon xavfsizligini taʼminlash, davlatlarning hamfikir boʻlishi, umumiy qadriyatlarning shakllanishi inson huquqlarining, terrorizm va migratsiya kabi masalalarning yechim topishiga sabab boʻlsa, ommaviy madaniyatning taʼsirida madaniy oʻziga xoslikning yoʻqolish xavfi, ekstremizm va terrorizmning yoyilishi, gegemon davlatlar taʼsiri ostiga tushib qolishi va suverenitetining yoʻqolishi ham ehtimoldan xoli emas.

- Ijtimoiy tuzilmadagi yangilanishlar ayniqsa, taʼlim sohasidagi integratsiyalashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etildi;
- Masofaviy taʼlim, onlayn kurslar va akademik almashinuv dasturlari;
- Mehnat bozorida yangi kasblarning paydo boʻlishi natijasida kasbiy malaka va raqobat talablarining oshishi;
- axborot oqimining keskin ortishi fuqarolarning dunyoqarashini kengaytirmoqda.

Globallashtirish sharoitida milliy qadriyatlarni asrash masalasiga alohida ahamiyat berishimiz kerak. Ommaviy madaniyat taʼsirida baʼzi milliy qadriyat, urfodatlar va anʼanalar oʻz ahamiyatini yoʻqotish xavfi ostida qolmoqda. Shu sababdan globallashtirish va integratsiyalashuv jarayoniga ongli va muvozanatli yondashish, milliy oʻzlikni saqlagan holda global taraqqiyotga imunitet shakllantirish zarur. Bu borada milliy tarbiya, madaniy merosni asrab-avaylash va yosh avlodda milliy va madaniy ongni shakllantirish muhim vazifalarimizdan biridir.

Xulosa qilib aytganda, globallashtirish jamiyat tarmoqlarining rivojlanishiga kuchli taʼsir koʻrsatib, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalarida ijtimoiy va maʼnaviy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun globallashtirish sharoitida jamiyatning barqaror rivojlanishini taʼminlash, milliy qadriyatlar va global jarayonlar oʻrtasida muvozanatni saqlash dolzarb vazifa boʻlib qolmoqda. Birinchi Prezidenti I.Karimov aytganlaridek: “Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq maʼnaviy boyligining ildizlariga eʼtibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab toʻplangan, tarixning ne-ne sinovlaridan oʻtgan. Insonlarga ogʻir damlarda madad boʻlgan. Bizning vazifamiz – shu xazinani koʻz qorachigʻimizdek asrash va yanada boyitish”. Vatanining har bir farzandida mafkuraviy imunitetni shakllantirishimiz va milliy tarbiyani kuchaytirishimiz lozim.





Adabiyotlar:

1. Ульрих Бек. Что такое глобализация? - Москва: Прогресс-Традиция, 2001.-С.40.
2. Globallashuv asoslari: darslik.\ Xajiyeva M. S. - Toshkent 2020.- 17 b
3. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi: o`quv qo`llanma. |A.A Isadjanov, N.S Ismailova.- Toshkent << Iqtisodiyot>>, 2019. – 8 b.
4. [https:// Wikipedia.org](https://Wikipedia.org).

